

**INVESTITSIYA SAMARADORLIGI KO'RSATKICHLARNING
IQTISODIYOTDAGI ROLI**

Hojiqulova Feruza Dona qizi
Termez davlat universiteti O'qituvchi

Mamlakatning iqtisodiy rivojlanishi investitsiya samaradorligi ko'rsatkichlari iqtisodiy tizimning samarali ishlashini ta'minlashda muhimdir. Ushbu ko'rsatkichlar orqali investitsiyalarni qanday samarali va to'g'ri yo'naltirish kerakligini aniqlash mumkin. Samarali investitsiya - bu nafaqat iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish, balki resurslarni optimal taqsimlash, yangi texnologiyalarni joriy etish va yangi ish o'rinalarini yaratishdir. Bugungi kunda, global raqobatbardoshlik va barqaror iqtisodiy rivojlanish uchun investitsiya samaradorligini oshirish zarur bo'lib, bu o'z navbatida milliy iqtisodiyotlarning yuksalishiga hissa qo'shamdi. Samarali investitsiya ko'rsatkichlari orqali investorlar va hukumatlar iqtisodiyotning qaysi sohalariga kapital kiritish kerakligini, qanday risklar va imkoniyatlarni hisobga olish zarurligini aniqlashadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Kambag'allikni qisqartirish va bandlik sohasida davlat siyosatini takomillashtirish va samaradorlikni oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2024-yil 4-oktabrdagi PQ-347-sonli qarorida ham muhimligi ta'kidlangan. Shu sababli, investitsiya samaradorligi ko'rsatkichlarining dolzarbligi ayniqsa rivojlanayotgan mamlakatlar uchun muhimdir, chunki ular chet el investitsiyalarini jalb qilish va iqtisodiy o'sishni ta'minlashni maqsad qilganlar.

Tadqiqotlar jarayonida yuqoridagi ko'rsatkichlardan foydalanib, ularni besh yirik guruhga bo'linishi hamda sanoat korxonalari investitsiya samaradorligini birinchi ko'rsatkichi bo'lgan moliyaviy baholash ko'rsatkichini ifodalashda quyidagi formula orqali ifodaladik:

$$MBK_i = \frac{MNTH + PMHTH + BH + DPO + SF}{5} \quad (1)$$

bu yerda;

MBK_i – sanoat korxonalari investitsiya samaradorligini moliyaviy baholash ko'rsatkichi,

MNTH- Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot,

PMHTH- Pul mablag'lari harakati to'g'risidagi hisoboti,

BH- Buxgalteriya balansi,

DPO- Diskontlangan pul oqimi,

SF- Sof foya.

Sanoat korxonalari investitsiya samaradorligini ikkinchi ko'rsatkichi bo'lgan iqtisodiy baholash ko'rsatkichini ifodalashda quyidagi formula orqali ifodaladik:

$$IBK_i = \frac{AR + KQ + KS + QM + IM + IR + JSFO + IO'QKX + KXBD}{9} \quad (2)$$

bu yerda;

SBK_i – Sanoat korxonalari investitsiya samaradorligini iqtisodiy baholash ko'rsatkichi,

AR- Aktivlar rentabelligi,
 KQ- kapital qaytimi,
 KS-Kapital sig‘imi,
 QM-Qoplash muddati,
 IM-Investitsiya multiplikatori,
 IR-Investitsiya rentabelligi,
 JSFO- Jalg qilingan salohiyatdan foydalana olish,
 IO‘QKX- Iqtisodiy o‘sishning qo’shimcha kapital xarajati,
 KXBTD-Komunal xizmatlari bilan ta’minlanganlik darajasi.

Sanoat korxonalari investitsiya samaradorligini uchinchi ko’rsatkichi bo’lgan sifatni baholash ko’rsatkichini ifodalashda quyidagi formula orqali ifodaladik:

$$SBK_i = \frac{ID + LB + BID + RBS}{4} \quad (3)$$

bu yerda

ID- Innovatsiyalar darajasi,
 LB- Loyihani boshqarish,
 BID- Boshqaruvga ishonch darajasi,
 RBS- Rejalarni bajarish sifati.

Sanoat korxonalari investitsiya samaradorligini to’rtinchi ko’rsatkichi bo’lgan tavakkalchilik baholash ko’rsatkichini ifodalashda quyidagi formula orqali ifodaladik:

$$TBK_i = \frac{SO + BK + SHK}{3} \quad (4)$$

bu yerda;

SO-Standart og‘ish,
 BK-Beta koeffitsienti,
 SHK-Sharp koeffitsiyenti.

Sanoat korxonalari investitsiya samaradorligini beshinchchi ko’rsatkichi bo’lgan ijtimoiy va ekologik baholash ko’rsatkichini ifodalashda quyidagi formula orqali ifodaladik:

$$IVEBK_i = \frac{KIJ + EB + XQD + JRQH}{4} \quad (5)$$

bu yerda;

KIJ- Kompaniyaning ijtimoiy javobgarligi,
 EB- Ekologik barqarorlik,
 XQD-Xodimlarning qoniqish darajasi,
 JRQH-Jamiyat rivojiga qo’shgan hissasi.

Investitsiya samaradorligini baholash uslubiyoti — bu investitsiyalarning moliyaviy, iqtisodiy, sifat, tavakkalchilik va ijtimoiy va ekologik samaradorligini o’lchash va tahlil qilish uchun qo’llaniladigan metodlar to’plamidir. Bu uslublar investorlar va kompaniya, korxonalar uchun qaror qabul qilishda muhim ahamiyatga ega.

Tadqiqotda tanlangan mezonlarni umumlashtirilgan holda guruhanishi mumkin bo’lgan Surxondaryo viloyati tumanlarini sifat mezonlari quyidagi turdagি ko’rinishini hosil qilinishi mumkin:

$$SKISBK = \alpha MBK + \beta IBK + \gamma SKB + \epsilon TBK + \varphi IVEBK \quad (6)$$

Bu yerda koeffitsientlar ekspert so'rovnomasiga ko'ra aniqlangan vazn ko'rsatkichlari bo'lib, u quyidagicha ifodalanadi:

$$\alpha + \beta + \gamma + \epsilon + \varphi = 1 \quad (7)$$

Bu ishlab chiqilgan uslubiyotning boshqa uslubiyotlardan farqi shundan iboratki, bunda hudud investitsiya samaradorligini, holatini ifodalovchi barcha ko'ratkichlar mujassamlashgan.

Hududning investitsiya samaradorligini baholash bosqichlari quyidagi jarayon orqali amalga oshiriladi:

maqsadni aniqlash lozimligi, ya'ni hududga investitsiyalarni jalb qilishning asosiy maqsadlari va natijalarini belgilash;

ma'lumot to'plash lozimligi, ya'ni investitsiya loyihasi uchun zaruriy iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik ma'lumotlarni yig'ish;

tahlil usullarini tanlash lozimligi, ya'ni investitsiya samaradorligini baholash uchun muvofiq usullarni (masalan, NPV, IRR, sarflanish muddati) aniqlash;

hisob-kitoblarni o'tkazish lozimligi, ya'ni tanlangan usullar asosida hisob-kitoblarni amalga oshirish;

natijalarini tahlil qilish lozimligi, ya'ni olingan natijalarini tadqiq qilish va ularning iqtisodiy va ijtimoiy ta'sirini baholash.

Xulosa chiqarish lozim, ya'ni natijalar asosida investitsiya qarorlarini qabul qilish yoki rad etish. Monitoring va baholash lozim, ya'ni loyiha amalga oshirilgandan so'ng uning samaradorligini doimiy kuzatish va kerak bo'lsa, tuzatishlar kiritish. Ushbu bosqichlar hududdagi investitsiya loyihalarini samaradorligini yuqori darajada baholash uchun muhimdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. "Kambag'allikni qisqartirish va bandlik sohasida davlat siyosatini takomillashtirish va samaradorlikni oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ 347-sonli prezident qarori, 5 oktabr, 2024 yil.

2. G'ozibekov D.G'. Investitsiyalarni moliyalashtirish muammolari. - T.: 2002. i.f.d. diss. Avtoref. II-14 b

3. Bozorov R. Investitsiya loyihalarini iqtisodiy samaradorligini baholash. 2017.15b.

4. <https://registr.stat.uz/>

5. <https://lex.uz/uz/>